



Jizzax davlat
Pedagogika
universiteti

TARIX FAKULTETI



TARIX va JAMIYAT

JOURNAL 2023



№5

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

Bosh muharrir: Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,
t.f.n., dotsent.

Bosh muharrir o'rinbosari: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

Mas'ul kotib: Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

Dizayner va sahifalovchi: Axmurodov D.Q

ADOLAT TAMOYILLARINING FOROBIY QARASHLARIDA AKS ETISHI

Ilmiy rahbar: Toshboyev Jamshid
JDPU, Umumiy tarix kafedrası o‘qituvchisi
Ergasheva Zilola JDPU,
Tarix fakulteti 310-21 guruh talabasi

Annotatsiya: Muallif ushbu maqolasida demokratik tartibotlarning ustuni xisoblanmish adolat tamoyilini Farobiy qarashlaridan kelib chiqib yoritgan. Bundan tashqari jamiyatda adolatsizlikni avj olishi ijtimoiy ahloqsizliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkinligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Farobiy, adolat, madaniy jamiyat, madaniy shahar, mustabidlik, adolatli davlat, ijtimoiy hayotning, O‘zbek davlatchiligi.

Abstract: In this article, the author explained the principle of justice, which is considered the pillar of democratic order, based on Farabi's views. In addition, it is explained that the rise of injustice in society can cause the emergence of social immorality.

Key words: Farabi, justice, cultural society, cultural city, autonomy, just state, social life, Uzbek statehood.

Аннотация: В данной статье автор разъясняет принцип справедливости, который считается столпом демократического порядка, исходя из взглядов Фараби. Кроме того, поясняется, что рост несправедливости в обществе может стать причиной возникновения социальной безнравственности.

Ключевые слова: Фараби, правосудие, культурное общество, культурный город, автономия, справедливое государство, общественная жизнь, узбекская государственность.

Mamlakatimiz milliy mustaqillikka erishib, demokratik-huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati shakllanayotgan hozirgi davrda, adolat muammosi va bu ijtimoiy hodisani yangi mezonlar asosida baholash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, adolat va haqiqat g‘oyasi barcha tarixiy davrlarda ijtimoiy hayotning turli sohalari rivojiga o‘z ta‘sirini o‘tkazib kelgan.

O‘zbek davlatchiligi tarixidan ma‘lumki, milliy taraqqiyot haqidagi ilg‘or fikrlarda adolat tamoyillariga jiddiy e‘tibor berilgan. Ijtimoiy ong shakllari va turli yunalishlardagi dunyoqarashlarning integratsiyalashuv nuqtasi, aynan adolat hamda uni baholash mezonlarini aniqlash masalalarida tutashgan, umuminsoniy mohiyatini namoyon qilgan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasida ta’kidlaganlaridek, Konstitutsiyamizda bizning bosh maqsadimiz – faqat huquqiy demokratik davlat emas, balki adolatli jamiyat qurish ekani aniq-ravshan belgilab berilgan. Bu maqsad hayotimizda mustahkam qaror topgan oddiy haqiqatdan, ya’ni xalqimiz har qanday qiyinchilikka chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi, degan so‘zlarni yaqqol tushunishdan kelib chiqqan, desam, o‘ylaymanki, butun el-yurtimizning fikrini ifoda etgan bo‘laman...

Qadimgi dunyoning buyuk donishmandlari “Nimaiki qonuniy bo‘lsa, u – adolatlidir”, deb ta’kidlaganlari bejiz emas. Ular shu tariqa aynan qonun adolat manbai va mezoni ekanini uqtirganlar, desak, har tomonlama o‘rinli bo‘ladi [1]. Yurtboshimizning yuqorida keltirilgan konseptual g‘oyasi fikrimiz yaqqol dalilidir.

Shu o‘rinda musulmon arab-sharqida o‘zining ijtimoiy-falsafiy fikrlari bilan ajralib turuvchi aloma Abu Nasr Forobiyning adolat va adolatli jamiyat haqidagi qarashlari bilan fikrimizni asoslashni joiz deb topdik.

Islom falsafasining yirik vakili Forobiy adolatsizliklarga yul quymaslikning asosiy sharti — davlat va jamiyatni boshqarishning to‘g‘ri tashkil etilishida, unga har tomonlama yetuk, o‘zida eng yaxshi insoniy fazilat va go‘zal xulqlarni mujassam qilgan kishilarning jalb etilishida deb bilgan. Ana shundagina, jamiyatda adolat qaror topadi, inson o‘zining yaratuvchanlik imkoniyatini namoyon qila olishi uchun sharoit yuzaga keladi, — deb yozadi.

Forobiy adolat va adolatsizlik haqida so‘z yuritar ekan quyidagi fikrlarni keltiradi, “Agar hukmdor o‘ziga bo‘ysindirish, itoat ettirish, ularni butkul o‘z izmiga solib, nima istasa, nimani buyursa, shuni so‘zsiz bajo keltirishlari uchun jang qilsa, bu adolatsiz kurashdir. Agar hukmdor kimdandir ustun turish maqsadida jang qilsa bu ham adolatsiz urush xisoblanadi. Bordi-yu, hukmdor kimnidur yoki kimlardir o‘z g‘azabini qondirish yoxud shunchaki huzurlanish uchun o‘ldirsa, bu ham adolatsiz sanaladi” [2] deb baholagan.

Adolat qaror topgan va aksincha adolatsizlik hukmron jamiyatlarga xos bo‘lgan xususiyatlarga to‘xtalib: «Madaniy jamiyat yoki madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb — hunarda ozod, hamma teng bo‘ladi, kishilar o‘rtasida ijtimoiy farq bo‘lmaydi, har kim o‘zi istagan yoki tanlagan kasb — hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma‘nosi bilan ozod bo‘ladilar... Ammo ba’zi shahar (yoki mamlakat)lar bo‘ladiki, ularda butun xalqning fikri — zikri, aql —idroki boylik to‘plash, mol —dunyo orttirishga qaratilgan bo‘ladi. Ulardan chiqqan rahbarlar ham rahbarlikni mol —dunyoni ko‘paytirishda deb biladilar. Shuning uchun ham ular erta —kech mol— dunyo to‘plash harakatida bo‘ladilar. Bunday rahbarlarning

qo‘l ostida ishlagan shahar xalqlarida turli buzuv odatlar, shahvoniy nafs, hasad, bir — birlarini talash, dushmanlik, nizo — janjallar paydo bo‘ladi. Ana shunday shahar xalqlaridan xislatlari, mayllari turlicha bo‘lgan avlod tug‘iladi”[3]— , deb yozadi.

Forobiy orzu qilgan fozil va adolatli jamoaning joxil jamoalardan farqi shundaki, unda odamlar eng go‘zal va yaxshi maqsadlarga hamda umumiy manfaatlarga erishish yo‘lida bir-birlariga yaqindan yordam beradilar deb qaragan. Shundan kelib chiqib fikr yuritadigan bo‘lsak, Forobiy fozil jamiyat quruish uchun insonlarni ma‘naviy yuksalishi, fuqaroviy fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi talablarini ilgari suradi.

Uning fikricha, jamiyatning mukammal yoki mukammal emasligi to‘g‘risidagi ideallik, asosan davlatga, jamiyatga qaratilgan. Ya‘ni, davlat boshqaruvi mukammal yoki mukammal bo‘lmaganligidadir. Davlatda yashayotgan insonlar fozil, oqil, ezgu niyatli bo‘lmasalar, bunday davlat tez orada yemirilishi va barqaror bo‘la olmasligi mumkin. Jamiyatning taraqqiyotini o‘ylagan, xalqning orzu —umidlari, istak va irodasini ro‘yobga chiqaruvchi davlat — Forobiyning ideal davlati edi. Chunki, davlat — jamiyatning tayanchi, xalqning orzu — umidlari, xohish — istaklarini amalga oshirishga shart—sharoit yaratadi. Davlat va xalq munosabatlarining o‘rtasida adolat qonunlari yotadi. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatning umumiy masalalarda inson adolatning konkret, ob‘ektiv aksiomalarni anglay oladi. Ya‘ni, insonning anglashlik quvvati amaliy faol aql doirasidagi ilmiy masalalarni qabul qilish qobiliyatiga bog‘liq. Forobiy fikricha, ideal jamiyatdagi har bir shaxsning (individning) fikrlari inobatga olinishi zarur.

Forobiy davlatni, jamiyatni boshqaruvchi kishi sog‘lom, jasur, botir, aqlli, ma‘naviyatli va tinchliksevar, adolat peshvosi bo‘lishi zarurligini ham uqtiradi. Bunday davlat rahbari aqlli, fozil, ezgu xislatli kishilarni tarbiya etadi.

Hozirgi davr vakillik demokratiyasining muhim unsuri xisoblanmish saylovlar ham allomamizning e‘tiboridan chetda qolmagan. Mutafakkir shunday deb yozadi: “Ularning o‘zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo‘lmaydi. Ular odamlar ichidan ko‘tarilgan, sinalgan, eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo‘ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o‘z saylovchilarini ozodlikga chiqaradilar. Bunday rahbar hammaga birday munosabatda bo‘ladi, hatto hammaning manfaatini o‘zining manfaalaridan ortiq ko‘radilar, xalq manfaati uchun o‘zidagi kuch-g‘ayrat va boyliklarini ayamaydilar”[4].

Forobiy fikricha, adolatli davlat, bu — mustabidlik emas, balki tiklanishi va faoliyatida xalqning orzu — umidlarini ro‘yobga chiqaruvchi kuchli davlatdir. Adolatli rahbar, uning fikricha, davlatni, jamiyatni jaholatdan, ma‘naviyatsizlikdan saqlab, uni taraqqiyot sari yetaklaydi [5]. Forobiyning bunday fikrlari bugungi

kunda ham, o‘zining amaliy qimmatini yo‘qotgani yo‘q.

Adabiyotlar:

1. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi/
2. Jo‘raeva S. Haqiqat manzaralari.100 ta mumtoz faylasuf/ Taqdirlar, hikmatlar, afarizmlar. —T.:Yangi asr avlodi. 2013— 187 b.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.—T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.—B. 190-191.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.—T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993, —B. 190b.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.—T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993, —B. 159-160.